

TONG Yulduzi

№6 (66391)
2003 yil
10 fevral
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

QALBIMDASAN, GO'ZAL XORAZM!

Men xorazmlik ekanligimdan faxrlanam. Chunki «Al-jabr», ya'ni algebra fanining asoschisi Al-Xorazmiy, Amerika haqida ilk bor og'iz ochgan Abu Rayhon Beruniy diyorimni dunyoga tanitgan. Haligacha ularning o'rganilmagan asarlari bisyor. Urganch va Xiva shaharlaridagi tarixiy obidalar esa «Moviy osmon ostidagi ochiq muzey» bo'lib olamni lol qoldirmoqda. Xorazmcha aytganda: «Yurtim dim go'zal». Shuning uchun doimo

*Madhingni kuylashga etay men jazm,
Mening qalbimdasan go'zal Xorazm,-
deyman.*

Maftuna MATNIYOZOVA,
Xorazm viloyati, Yangibozor tumani,
Bog'lon qishlog'idagi
20-maktabning 7- «B» sinf
o'quvchisi.

QAHRAMONNING MAKTABI

Mening maktabim poytaxtimizdagi eng yaxshi maktablardan biri. Rahbarimiz Mavluda opa Ismatova O'zbekiston Qahramoni. Shuning uchun ham qahramonning maktabi hamisha o'z obro'sini saqlashi kerak-da. Mavluda opa qo'llaridan kelgancha bizni qo'llab-quvvatlaydilar. Bilimlarimizni mustahkamlashimiz maqsadida maktabimizda har xil tadbirlar o'tkazadilar. Yaqinda maktabimiz o'quvchilari «Zakovat» teleo'yinida ham ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ularning ichida bizning a'lochi o'quvchilarimizdan Adiba Ergasheva ham bor edi. Bu ham maktabimiz obro'sini yanada oshirdi.

Bilimdon o'qituvchilarimiz bizdan hecham bilimlarini ayamaydilar. Yaqindagina

tajribasini oshirish uchun kelgan talaba o'qituvchilarimiz ham juda yaxshi dars o'tishadi. Chunki ular ham Mavluda opa maktabini o'taydilar-da. Sinfrahbarimiz Shoira opa Muhammedova bizni o'z farzandidek ko'radi. Jumladan, Z.Qodirova, N.Azizova, A.G'oziyeva, F.Bo'riyeva kabi o'qituvchilarimiz bizga ota-onamizdek aziz va qadrdon. Maktabimizda turli xil to'garaklar ham mavjud. Biz bu to'garaklarga qatnashib, kunlarimiz sermazmun, yorqin xotiralarga boy bo'lib o'tayotganidan mamnun bo'lib yashayapmiz. Men maktabim bilan faxrlanam. Bu maktabni bitirgan zamonamizning mashhur kishilari o'rnini bosishga harakat qilaman.

Aziza HAKIMOVA,
Yunusobod tumanidagi 273 -
maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi)

Boshi o'tgan sonlarda.

— Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchilarning talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

— o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettirish;

— maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talabalar darajasiga ko'tarish;

— pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratish zarur:

— aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma'lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning samarali yo'llarini keng ko'lamda ilmiy tadqiq etish;

— milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlarining mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o'rnini va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

— mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;

— mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy- ma'rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

(Davomi bor).

“SHUNQOR QIZLAR”

Bayramona bezatilgan zalimizga o'zining chaqqon qadamlari bilan



harbiycha kiyingan shunqor qizlartashrif buyurishdi. Hamaularni beixtiyor qarsaklar bilan kutib oldi.

Bu voqea Sirg'ali Tibbiyot

bilim yurtida 3-guruh «Qalqon» guruhi va 6-guruh «Vatanparvar» guruhlari bellashuvi jarayonida bo'lib o'tdi. Tadbirni ma'naviyat va ma'rifat bo'lim boshlig'i Abdunabi Odilov olib bordilar. Tanlovdan askarlar hayotidan sahna ko'rinishlari, arqon tortish, erkin mavzu, qizlarning pazandalik mahoratlarini kabi shartlar o'rin oldi. Bayram tadbiriga yozuvchilar, jurnalistlar hamda askar yigitlar ham tashrif buyurishdi. Tanlov o'z nomi bilan tanlov, unda albatta g'olib guruh tanlanishi kerak.

«Qalqon» guruhining g'olib qizlarini harbiy bo'lim boshlig'i, kapitan Ixtiyor Qurbonov tabriklab, ularga o'qish va ishlarida omad tiladi.

Farida MIRSOATOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali Tibbiyot
bilim yurtining
I-kurs, 5-guruh talabasi.



TERRORCHILARNI YER YUTSIN

Menimcha, barcha bolajonlarning niyati ham shunday. Axir beg'ubor, musaffo, tinch osmonimiz bag'rida ta'lim olishdan, o'ynab-kulishdan, ota-onamiz orzularini amalga oshirishdan go'zal amal bormi? Yurtimizda biz - bolalarga qaratilayotgan e'tibor - bolalar sportining rivojlanishi, a'lochilarning xorijda ta'lim olishi, yosh musiqashunoslarning dunyoni titratishi va boshqalarga qarab turib «Tinchligimizga ko'z tegmasin» deyman.

Dunyodagi qaynoq nuqtalarda hayot qiyinchilikda o'tayapti. Muzokara va murosas bilan kelishib olinsa bo'ladigan chigalliklarni qon to'kish bilan hal etishyapti. Bolalarning ko'zi yoshli, beg'ubor davri azobli. Halovatlari yo'qolgan...


Men dolzarb muammoga aylanib borayotgan - terrorchilarni qoralab she'r bitdim.

TERROR

Terror nima? Terror bu - ofat!
Terror shubhasiz yog'dirar kulfat.
Na dini bor, na bor millati,
Qonxo'rlik, razillik uning illati.
Uning ozuqasi odamzod qoni,
Sevgan musiqasi go'dak faryodi.
Terrorni yoqlaydi faqat nodon,
Ongsiz, hissiz, vijdotsiz hayvon.

Iqboloy TURG'UNOVA,
Farg'ona viloyati, Oxunboboyev tumanidagi 9-
o'rta maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

Tengdoshlarning ijodi



"YO'LLARIMNI YORITAR BIR NUR"

Nurxon Qarshi shahridagi 32-o'rtta maktabning 8-sinfida o'qiydi. Uch-to'rt yildan beri she'r, hikoyalar mashq qilayapti. O'tgan yili Respublikada bo'lib o'tgan «Iqtidorli bolalar» ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni egallagan. Eng muhimi, Nurxon Bozorova bolalar dunyosining biz kattalar bugun xo'rsinib, sog'inib

xotirlaydigan eng betakror lahzalarini o'z ko'ngil ko'zi bilan ko'ra olayapti. Uning «Orzulardan yaralgan olam» deb nomlangan mitti kitobchasi o'z tengdoshlarining o'y-fikrlari, orzu-istaklarini ifodalaydi. Katta karvon yo'liga chiqayotgan Nurxonning orzulari ushalsin!
Norqobil JALIL, shoir.

ONATILIM

Dunyoda tillarning jozibasi ko'p,
Har kim o'z tilida so'zlaydi mag'rur.
Hazrat Navoiyga ilhom baxsh etgan
Men ona tilimdan qilaman g'urur.

Dengizning ostida bo'lsa ham gavhar,
Yo'qotmagay qadru qimmatni zinhor.
Ne-ne to'fonlarning silsilasidan,
Omon qolgan go'zal ona tilim bor.

Koshg'ariy bobomning mehri qonib,
U uzoq o'tmishdan so'ylaydi jo'shib.
Dunyoni lol qilib, hayratga solib,
O'z ona tilimda kuylayman qo'shiq.

YO'LLARIMNI YORITAR BIR NUR

Istiqbolga qadam tashlayman,
Dilda orzu-niyatlarim mo'l.

Qalbga solib Vatan mehrini,
Yo'llarimni yoritar bir nur.

Ko'nglimga hech rahna sololmas,
G'am-tashvishlar qilmas behuzur.
Chunki endi qaytmoq yo'q ortga,
Yo'llarimni yoritar bir nur.

Bu munavvar istiqbol nuri,
Undan bahra olib o'saman.
Bir kun kelib ona yurtimning,
Shuhratiga shuhrat qo'shaman.

SEN UCHUN, VATAN

Agar men bo'lsaydim nafis qizg'aldo,
Yurtim qirlariga zeb baxsh etardim.
Agarda sayroqi bulbul bo'lsam-chi,
Bu dunyoda madhing kuylab o'tardim.

Agarda men zarrin quyosh bo'lsaydim,
Kumush nurlarimni senga sochardim.
Agarda atirgul yo'g'uncha bo'lsam,
Har tongda sen uchun yuzim ochardim.

Men-chi, bir qizingman dilimda Vatan,
Mehru-muhabbating jo'lgan bu tan.
Zarra tomchi kabi foydam tegsa gar,
Armonim qolmasdi qalbmida bu kun.

Nurxon BOZOROVA.

BAHOR

Go'zalligi bilan kelmoqda bahor,
Toza qalbingizga yuqmasin g'ubor.
Sevgi va muhabbat sizga bo'lsin yor,
Eng yaxshi tilaklar yarakda bisyor.

Tabiat yashil rang libosin kiydi,
Tongda qushlar yayrab-sayraydi endi.
Ufq har qachongidan sokindir bugun,
G'unchaning yuzidan yechildi tugun.



ONA

Onajonim ishonchi,
Farzandlari quvonchi,
Bu dunyoning tayanchi,
Onajonim, bor bo'ling.
Sizsiz olovli dunyo,
Sizsiz muhabbat ro'yo,
Tuganmas mehr go'yo,
Onajonim, bor bo'ling.

Har bir shoir so'ylagan,
Hofizlari kuylagan,
Tilaklarim bo'ylagan,
Onajonim, bor bo'ling.

Shaxnoza ISMOILOVA.

"O'RIK GULLARINI KO'ZGA SURTGUM BOR"

Shahnoza Toshkent shahridagi 254-gimnaziya maktabida tahsil olgan.

U o'zining ustozlari deb, gimnaziya maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Munira opani faxr bilan tilga oladi. She'riyatning ilk ko'chalaridan ildam odimlayotgan Shahnozaga yozuvchi Tohir Malik ham ustozlik qilmoqda. 2002 yili Shahnoza Toshkent shahridagi 4-sonli kasb-hunar kollejiga o'qishga qabul qilindi va u yerda tahsil olmoqda.

Shahnozaning she'rilaridan tongning zilol suvlari shildirashi, Vatan g'iyohlarining isi ufurib turadi.

O'rik shoxlarida ochilgan oppoq bodroq gullar singari orzular osmonida parvoz qilayotgan Shahnoza Ismoilovaga parvozing yanada yuksak bo'lsin deymiz.



KATTA BO'LSAM AYTAMAN

(Hikoya)

Men 4- sinfda o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda turli o'yinchoqlar yasashni yaxshi ko'raman. Yaqinda onajonimning tug'ilgan kunlari bo'ldi. Habibullo akam bilan kelishib, yumshoq o'yinchoq - kuchukcha yasadim.

Kuchukchamning ichiga paxta solib, ustidan mato tikdim. Ko'zlarini esa tugmachadan tayyorladim.

BIRINCHI SOVG'AM

juda yoqdi.

Bu mening o'z qo'lim bilan tayyorlagan birinchi sovg'am bo'lgani uchun ham uni onajonimga tezroq topshirishga oshiqdim. Onam ishdan qaytadigan vaqtlarigacha akam uylarni yaxshilab tozaladilar, men esa sovg'amning kamchiliklarini to'g'rilab turdim.

Onam ishdan kelganlarida uyimizning ozodaligini hamda tikkan kuchukchamni ko'rib rosa quvondilar.

Akam ikkimiz ularga sog'lik, omonlik tiladik. Doimo mana shunday xursand bo'lib yuring, dedik.

Abdullo HAMIDULLAYEV,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi

46- maktabning 4- «A» sinf o'quvchisi.

Uch yoshli Nozimaxon O'g'iloy bilan qadrdon do'st. O'g'iloyning onasi shifoxonada yotib chiqqach, zo'r o'g'il bola olib keldi.
-Bobom Mirzaqobilbek deb ism qo'ydilar.
O'sha kundan buyon ikkalasi «Husniobod» mahallasida Mirzaqobilbek degan pahlavonga mehr qo'yishdi. U qorni ochsa yig'lar, to'ysa uxlab qolardi. Shunda bular «qo'shni-qo'shni» o'yinini o'ynashardi. Pastdagi o'yin maydonchalari esa hamisha saranjom-sarishta.
Kunlardan bir kuni Nozima bog'chasi kelsa, ne ko'z bilan ko'rsinki, g'adibudur yo'llar tep-teki. Hali issiq, qaynoq yo'ldan zo'rg'a o'tdi. Uyidan bitta so'rg'ich, chiroyli shiqildoq o'yinchoqni ko'tarib, uchinchi qavatdagi qo'shnining uyiga yugurdi. Baxtiga chaqaloq uyg'oq ekan.
Hanuzgacha qizib turgan oyoqlarini shaxdam-shaxdam bosib, chaqaloq yoniga keldi.
-Mirzaqobilbek! Qalaysan? Bugun uxladimgi? Yig'ladingmi?
Kichkintoy oyoq-qo'llarini tipirchilatib, «gu-gu» lardi. So'lakchalarini artib qo'ydi.
O'g'iloy bilan ikkisi ukasining ko'zlaridan nima demoqchi bo'lganini uqib olishardi:
-Bek, - erkalatdi Nozima, - seni sog'indim. Bilasanmi nima, ko'chamizdagi yerni tekislab, kuydirib ketishibdi. O'zim ko'rdim. Qara, haliyam oyog'im qiziyapti.
Qobilbek uning qo'ng'iroqdek ovoizidan qiqir-qiqir kular, tillarini chiqarib, talpinardi. O'g'iloy Nozimaga tushuntira boshladi:
-Hozir gapirolmayman deyapti. Katta bo'lsam o'zim tushuntiraman. Bobom Mirzaqobilbek qoqilib tushmasin deb, asfalt yotqizdilar.



Feruza SHOYUSUPOVA



Aziz do'stlar! Qadrli bolalar, qizlar!

Siz «mo'jiza» so'zini ko'p eshitgansiz. Kimdir Misr ehromlarini, Hindistondagi Toj mahal majmuini, Fransiyadagi Eyfel minorasini mo'jiza deb talqin etadi. Kimdir ajoyib sozandamiz Turg'un Alimatovning tanburiga qumri qo'nganini va kuy tinguncha uchib ketmaganini yo shoirlar she'ro'qiganda to'rg'aylar eshitganini ilohiy mo'jiza deydi. Men sizga aytib bermoqchi bo'lganim mo'jiza obidalar yo qushlar emas,

KITOB JO'NATADIGAN DO'KON

Kutubxonamizda, tabiiyki, o'g'il bolalar qiziqadigan mavzuda kitoblar ko'p emasdi. Mening opam (ya'ni onam) maktabda o'qituvchi edilar. Kitoblar ozligidan shikoyat qilganimda, ular qaydandir Toshkentdagi «Kniga-pochtoy» (xaridordan yo'l haqini olib, kitob yuboradigan tashkilot) manzilini topib keltirdilar. Men bir necha kitoblarni so'rab xat yozdim. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, pochtaimiz menga posilka keltirdi, ustiga kitoblarning umumiy bahosi yozilgan edi - haqini to'lab oldim. Yangi kitoblar yaraqlaydi. Dastlab olgan bu kitoblarim atoqli o'zbek yozuvchisi Shuhratning «Shinelli yillar», «Oltin zanglamas» degan romanlari, shuningdek, Eron yozuvchisi Kozimiyning «Qo'rqinchli Tehron» asari edi. Bu «posilka»ning ichidan yana ularda qanday qiziqarli

HAYOTIMDAGI BIRINCHI MO'JIZA

bilishmas edi. Agar o'sha kitoblarning kinosi chiqib, uni ko'rganlar: - Sen aytganday emas ekan, - deb qolsa: - Kinoni o'zgartirishgan, - deb qo'yardim. Xullas, butun-butun og'zaki voqealarni to'qish o'sha jarayonda boshlangan menda.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA Keyinchalik bu

to'garakdan qishloq klubi q o s h i d a havaskor yoshlar to'garagi tashkil topdi. Maktabimizni 67-69- yillarda tugatgan o'quvchilarning juda ko'pchiligi

Soatjon SHARIPOV, 9- «A» sinf o'quvchisi:

-Kitob. Bu so'z zamirida qanchadan-qancha insonlarning mehnatlari yotadi. Yoshlar ma'naviyatini boyitadigan kitoblarning rastalarda sarg'ayib yotishlarini ko'rib, ularning mehnatlariga achinib ketaman. «Kitob kamayib ketdi», deganlar adashadilar. Kitob juda ko'p, uni o'qiydigan kitobxon kam. Bo'sh vaqtini billiardxonalaru turli saylgohlarda o'tkazishni ma'kul ko'radigan ayrim tengdoshlarimiz, «o'qiy desak yaxshi kitoblar yo'q», degan bahona bilan o'zlarini oqlamoqchi bo'lishadi.

kitoblar bilan bog'liqdir.

Men tug'ilgan qishloqning oti - Oltmish, qadim Xorazmning qadim bir qishlog'i. Eng oldin bu yerga oltmish oila ko'chib kelib, obod qilgani uchun oti Oltmish bo'lib qolgan. Men 1952 yilda shu yerda tug'ilganman. 20 - o'rta maktabda o'qiganman. Taxminan 2-3-sinfda o'qib yurgan paytlarimda kitob o'qishga qiziqib qolganman. Maktabimizda kichik kutubxona bor edi. «Tishim o'tadigan» kitoblarni o'qirdim. Menga sarguzasht asarlar yoqardi, shuning uchun kutubxonadagi bunday kitoblarning hammasini o'qib chiqqandim.

6-sinfda o'qib yurgan kezlrimizda bizni o'qishdan keyingi soatlarda qishloq xo'jalik ishlariga jalb qila boshlashdi. Dalada ishlardik. Bahordan sabzi-piyoz o'tog'i, kuzda piyoz, sabzi kavlash. Bizga qiyinrog'i - kanop o'rish, g'aram bog'lash edi. Mening jussam kichikligi uchun, ayniqsa, g'aram bog'lash xiyla og'irlik qilardi. Biz besh nafar sinfdosh - to'rt o'g'il va men - bitta bo'limda ishlardik. O'g'il bola sinfdoshlarimga to'xtovsiz kitob o'qib berib tursamgina, ular menga yordamlashar edilar. Men ularga «Qilich va qalqon», «Yosh gvardiya», «Barg xonimning qo'g'irchog'i», «Yigirma oltinchisi otilmasin» kabi razvedkachilar, partizanlar hayoti bilan bog'liq kitoblarni hikoya qilib berardim. Menga qaysi qahramonning taqdiri yoqmasa, ayniqsa, ular halok bo'lgan bo'lsa, ularni o'zimga yoqadigan, g'olib va o'lmas qilib, voqealarni o'zgartirib aytardim, o'qigan kitobimning voqeasini xohlagancha o'zgartiraverardim. Sinfdoshlarim kitob o'qishmas, mening bunday qilganimni

Dilorom ABDULLAYEVA, 9- «A» sinf o'quvchisi:

-Menimcha, kitob borliqni anglash, uni tushunish kalitidir. Lekin hozirda ko'pchilik yoshlar bu kalitning qadr-qimmatini anglab yetganlaricha yo'q. Aslida yoshlarning kitob o'qimasliklariga kitobning kamligi bahona emas. O'qimoqchi bo'lgan odamga kitob hamma vaqt topiladi. Bir inson umr bo'yi bir kutubxona kitoblarini o'qib tugata olmaydi...


Xanifa TO'LAGANOVA, o'qituvchi:

- Menimcha kitob ham, kitobxon ham yetarli, lekin bozorlarda, kitob do'konlarida sotilayotgan kitoblarning narxlarini bilimga tashna yoshlarimizning imkoniyatlari darajasida emas. Ayni paytda kitobxonlarning kamayib ketayotganlariga ham sabab shu. Albatta bu bahonani kitobxonlar kamayib ketayotganiga sabab qilib ko'rsatmoqchi emasman. Izlagan imkon topadi, kitob sotib ololmasa, kutubxonalar bor. Lekin afsuski kutubxonaga a'zolar hali ko'pchilik emas. Buning sababi nima? Yoshlarimiz bu haqda o'ylab ko'rishsa yaxshi bo'lardi.

kitoblar borligini ko'rsatuvchi ro'yxat ham chiqdi. Shu bilan maktabimizga o'zgacha bir hayot kirib keldi. Avval sinfimizdagi kitobxon qizlar, so'ng maktabimizdagi barcha kitobsevarlar birin-ketin Toshkentga, Eskijo'vadagi «pochta bilan yuboriladigan kitob» tashkilotiga kitob so'rab, xat yoza boshlashdi. Yuqori sinflar «Bir qizga ming oshiq», «Qoraqalpoq qizi» kabi kitoblarni so'rashardi. Mening dardim hanuz harbiy kitoblar edi. Ro'yxat sinfma-sinf ko'chib, titilib ketdi. Adabiyot muallimimiz maslahati bilan uni bir necha nusxada ko'chirib, «Sinf burchagi»ga, «Dars jadvali» yoniga osib qo'ydik. Bora-bora kitob jo'natadigan tashkilot bizga shu qadar o'rganib qoldiki, so'ramasak ham, yangi kitoblarni o'zlaricha jo'nata boshlashdi.

Pochtaimiz kunora velosipedning orqasidagi

Sahifani Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi o'quvchisi Umida TOG'AYEVA tayyorladi.



Xurshida HUSANOVA, 9-sinf o'quvchisi.

- Nazarimda hozirgi paytda o'quvchilarning yoshlariga, qiziqishlariga mos keladigan kitoblar kam nashretilyapti. To'g'ri, bozorlarimizda kitoblar juda ko'p. Lekin ularning aksariyati chet eldan keltirilgan va ular bizning sharqona tarbiyamizga, urf-odatlarimizga mos kelmaydi. Behayo suratlar bilan bezatilgan, ur-surlaru zo'ravonliklar mavzusidagi bunday kitoblar ongimizni zaharlashdan boshqaga yaramaydi. Men biz yoshlar o'qib, ma'naviy ozuqa oladigan kitoblar ko'plab chiqarilishini xohlardim.

oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirdilar. Ular orasida hozir butun O'zbekistonga tanilgan shifokorlar, huquqshunoslar, san'atkorlar, muxandislar, shoir-yozuvchilar, turli-tuman kasb egalari bor. Bu tasodif emas. Biz sevib o'qigan asarlarning bosh qahramonlari aynan shunday kasb egalari edilar. Ular hayotidagi qiziqarli voqealar kitoblar orqali qalbimizga o'tgan edi. Biz ham o'sha o'qigan qahramonlarimizga o'xshashga intilardik. Hali-hanuz o'sha o'qituvchilik paytim pochta orqali olgan kitoblarimga biron joyda ko'zim tushsa, bolalik xotiralarim bilan uchrashgandek g'alati bo'lib ketaman.

Agar mening mahallamda to'rtta o'g'il bola emas, men bilan baravar to'rtta qiz tug'ilganda...

Yoki opam qaydandir kitob jo'natadigan do'kon manzilgohini topib kelmaganda...

...maktabimizda kitobxonlik muhiti paydo bo'lmasmi?

...biz soatlab yangi asarlar haqida bahslashmasmidik?

Yo'q, baribir boshqa tarafdin kitob hayotimizga kirib kelardi. Chunki biz o'zimiz kitobga intilayotgan edik.

Men sizlarga aytayotgan gapimning boshida hayotda har xil mo'jizalar bo'lishi haqida gapirgandim. Va bunday mo'jiza har kimning hayotida albatta sodir bo'ladi va u hech qachon bitta bo'lmaydi. Ammo hamisha uning birinchisi bo'ladi.


Mening hayotimning birinchi mo'jizasi kitob edi.

Iroda AIPOVA, 9-sinf o'quvchisi:

- Kitob - bilim bulog'i. U shunday bir mo'jizaki, insonni yomonlikdan yaxshilikka, qorong'ulikdan yorug'likka yetaklovchi nurdir. Hozirgi kunda kitoblar kam emas, lekin ko'pchiligi rus tilida. Bu birinchi muammo bo'lsa, ikkinchisi yoshlarning kitobga qiziqishi so'nib borishidir. Biz yoshlar O'zbekiston kelajagimiz. Ta'lim-tarbiyamizda kitob juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ko'proq mutolaa qilishimiz kerak.

Alisher Navoiy tavalludining 562 yilligiga

AJDODLARGA MUNOSIB



Bir kuni metroda ketayotib, keksa bir otaxon bilan maktab o'quvchilarining suhbat qulog'imga chalinib qoldi. Otaxon yonlarida turgan bolalardan, Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyiga qanday borsambo'ladi, deb so'radilar. Shunda

ushbu hujjatlarni ko'rib, o'rganishlarini istardim. Chunki 65000 hujjatlarni o'z ichiga olgan adabiyot muzeyida XIX asrdan to hozirgi kunimizgacha bo'lgan shoir va yozuvchilarimizning arxivi orqali ko'pnarsani o'rganish mumkin.

-Chet davlatlar bilan ham hamkorlik qilinadimi?

-Albatta, biz qator xorijiy mamlakatlar muzeylari, kutubxonalarini va ilmiy muassasalari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yganmiz. Olimlarimiz Hindiston, Germaniya, Angliya, Eron, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiyada o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda ishtirok etib kelmoqdalar. Bundan tashqari, muzey Xalqaro muzeylar kengashi IKOM tashkiloti a'zosi.

-Muzeyingizga bolalar ham kelishadimi?

ular bir-birlariga ajablanib qarab, bunday muzey haqida eshitmaganmiz, deya yelka qisishdi. «E, otaxon, siz bulardan muzeyni emas, kinoteatr va diskotekalarni, billiardxonalarini so'rang, aytib berishadi», deya istehzoli jilmayib suhbatga qo'shildi yoshi ulug'roq bir kishi...

Bu voqea boshqalarga qanday ta'sir qildi bilmadimu lekin meni juda ranjiti. Ana shu maskanga borib, muzey xodimlari bilan shu xususda suhbatlashishga qaror qildim. Alisher Navoiy bobomizning tavallud kunlari arafasi bo'lgani uchunmi, muzey juda gavjum ekan. Birinchi suhbatdoshim muzeyning katta ilmiy xodimi, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, fan nomzodi Yusuf Tursunov bo'ldilar:

-O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi ilmiy va ilmiy ma'rifiy maskan bo'lib, u 1968 yilda, shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan. O'shapaytda xonadonlarda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar, Alisher Navoiy davriga oid risolalar, o'sha davr tarixchilari, shoirlarining aholidan to'plangan noyob kitoblari muzey asosini tashkil etgan. Hattoki, Alisher Navoiy hayotligida ko'chirilgan «Badoye-ul bidoye» devoni ham saqlangan. Muzeyga kelgan tomoshabinlar O'rta Osiy madaniyati va san'atining namunalari - tasviriy san'at, kitoblar, hattotlik, naqqoshlik, me'morchilik asarlari bilan ham tanishadilar. Bunda ularga albatta muzeyning ilmiy xodimlari, bo'lim boshliqlari va ekskursavodlar yaqindan yordam beradilar. Undan tashqari O'zbekiston yozuvchilari arxivi ham muzey faxri hisoblanadi. Tashqi tomondan ko'rsangiz, muzeyning o'zi ham noyob arxitektura yodgorligi sanaladi.

-Yozuvchilar arxivi haqida batafsilroq gapirib bersangiz.

-Qo'lyozmalar fondi, yozuvchilar arxivida saqlanayotgan hujjatlar - muzey ilmiy faoliyatining asosini tashkil etadi, desam ham bo'ladi. Chunki bu manbalar ustida 1 akademik, 5 fan nomzodi, 8 ilmiy xodim o'z ilmiy tadqiqotlarini olib bormoqdalar. Men nafaqat akademik yoki fan nomzodlari, balki maktab o'quvchilari, talabalar ham

SHOIR RUHIN YOD ETIB

-Bilasizmi, maktab o'quvchilarini jalb qilish qiyinroq. Lekin ayrim vaqtlarda adabiyot fani o'qituvchilari o'zlarini o'tgan darslarni mustahkamlash uchun o'quvchilarni muzeyga olib kelishadi, dars o'tishadi. Men ko'pincha ularni kuzataman. Oralarida o'qituvchining gaplarini jon quloqlari bilan tinglab, xodimlarimizni savollarga «ko'mib» tashlaydiganlari talaygina. Bu bizni albatta quvontiradi. Chunki, kelajakda ular orasidan yetuk tarixchi, adabiyotshunos olimlar ham yetishib chiqishiga umid qilsak bo'ladi. Lekin ayrimlari darsga quloq solish u yoqda

tursin, bir-birlarini turtib, bachkana qiliqlar qilib, darsga halal beradiganlari ham yo'q emas. Ularning bu yerga majburan kelganliklari shundoq sezilib turadi. O'qituvchilari olib kelmasa, o'zlarining hecham kelmasliklari tayin. Menimcha, ustozlarimiz o'z fanini o'qituvchilarga qiziqarli tarzda tushuntirib berolsa, o'quvchida ham shu fanga ishtiyoq tug'iladi.

-Alisher Navoiy bobomizning qanday asarlari qaytadan nashr etilmoqda? Ular hayotiga oid yana qanday yangiliklar kiritilgan?

-Men o'zim Alisher Navoiyning «Munshaot», ya'ni «Maktublar to'plami» asarini zamondoshlarimiz uchun o'qilish oson bo'ladigan tarzda tarjima qildim va «Alisher Navoiyning «Munshaot» asarining nasriy bayoni» kitobini nashrga tayyorladim. Qolgan ishlar haqida muzeyimiz faxri, atoqli olim Azizxon Qayumov domla so'zlab bersalar...

Azizxon QAYUMOV:

-Alisher Navoiyning 20 jildan iborat mukammal asarlari to'plami tarjima qilinib, til va adabiyot instituti tomonidan nashrga tayyorlandi. Yaqinda Alisher Navoiyning «Arbain», ya'ni «Qirq so'z» asarining rus tiliga tarjima ishlari yakunlanib, asar nashrdan chiqdi. Bu asar shuncha yillar davomida saqlanganiga qaramay, tarjima qilinmagan edi. Sababi, «Qirq hadis» Muhammad Alayhissalomning hadislarini bo'lib, mustaqillik sharofati bilangina biz uni

avlodlarga yetkazib bera oldik. Men qirq hadisning nasriy bayonini yozib chiqdim. Biz tarixda Alisher Navoiydek buyuk vatandoshimiz borligidan faxrlanib yashashimiz kerak. Chunki u davrda til o'rganish hozirgi kundagi kabi oson emasdi. Shunga qaramay, Alisher Navoiy arab tilining 6 izohli lug'atini o'rganib chiqib, «Sabat-afkur», ya'ni «Yetti dengiz» izohli lug'atini tuzadi. Arab tilida mukammal lug'at tuzish uchun esa shu tilni o'z ona tilidek bilish kerak. Alisher Navoiy 50 yildan beri o'rganayotgan bo'lsak, bugungi kundagi qilayotgan asosiy ishlarimizdan biri bu yosh shoir Oydin Najafov bilan birgalikda 255 ta to'rtlikdan iborat hali tarjima qilinmagan «Nazmul - javohir» asarini rus tiliga she'riy tarzda tarjima qilmoqdamiz. Bu asar ustida Ma'mura Olimova o'z disertatsiya ishlarini yozganlar.

- Bolajonlarga, xususan, «Tong yulduzi» gazetasi muxlislariga tilaklaringiz.

-Men Alisher Navoiy kelajak avlod mukammal o'rganishini istayman. Zero, tarixsiz kelajak yo'q. Bolajonlarning o'z ota-bobolari tarixi bilan yaqindan tanishishlari uchun muzeyimizga bir bor tashrif buyurishlarini xohlardim. Chunki bu muzeyga kelgan odam o'zini o'tmishga borib qolgandek his qiladi va yana kelaveradi. Shuningdek, «Tong yulduzi» gazetasi muxlislarining ajdodlariga munosib avlodlar bo'lishlarini tilayman.

-Samimiysuhbatlaringiz uchun tashakkur.

Ma'suda ABDUQODIR qizi
suhbatlashdi.

QUTLUG' NOM VORISLARI

Mana shunday Navoiyxonlik kechasi yaqinda Respublika o'quvchilar saroyida ham bo'lib o'tdi. Saroyning 210 ta to'garaklaridagi to'rt mingga yaqin o'quvchilar Navoiyxonlik kechasida qatnashdilar.

Shu kuni 22- mehribonlik uyida tashkil etilgan «Ingliz tili», «Hind raqslari va an'analari» deb nomlangan to'garak a'zolari hamda 101- sonli kar-soqov nogironlar maxsus internatidagi «Raq», «Kompyuter», «Rasm» to'garak a'zolari ham navoiyxonlik kechasida faol ishtirok etishga harakat qildilar.

To'garak a'zolari tomonidan yod olingan she'r va g'azallar, hikmatli so'zlar kechaning jonli va qiziqarli chiqishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, kichik sahna ko'rinishi orqali Navoiy obrazini yaratgan «Tumor» klubi a'zosi, 34- maktabning 11- sinf o'quvchisi Doniyor Abdullaxonovning chiqishi atrof dagilarga birdek ma'qul bo'ldi.

Bundan tashqari «Kashtachilik» to'garagi a'zosi, 59- maktabning 2- sinf o'quvchisi Nilufar Shamsimatova, «Yosh hamshira» to'garagi a'zosi, 243- maktabning 8- sinf o'quvchisi Sayyora Eshmuhamedova, «Turon» to'garagi a'zosi, 127- maktabning 11- sinf o'quvchisi Zamira Beshimova kabi o'quvchilarning ifodali o'qigan g'azallari kechaga yanada fayz kiritdi.

- Navoiyxonlik kechasi barcha viloyatlarimizda ham bo'lib o'tdi, - deydi saroyning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Zumrad Yoqubova. - Ayniqsa, Samarqand, Andijon, Namangan va Jizzaxdagi o'quvchilar saroylarida ham Navoiyxonlik kechasi mazmunli o'tkazildi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyga bag'ishlangan tadbirlar, kechalar, uchrashuvlar nafaqat uning tavallud kunida, balki yil davomida o'tkazilsa arziydi. Sababi, shoirning umri manguликka teng asarlari har bir o'quvchini komillik sari yetaklaydi, ezgulikka, yaxshilikka undaydi.

Ushbu kecha orqali to'garak a'zolari ham ulug' bobomizning qutlug' nomiga munosib inson bo'lishga ahd qilgan bo'lsalar ajabmas.

Feruza ODILOVA.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 520 yiliga

AVLODLARNI OLQAYMIZ

O'zim toshkentlik bo'lganimdan,
 Boburning onasi toshkentlik ekanini bilganimdan,
 Bobur 12 yoshida taxtga o'tirganidan,
 kattalardek ish yuritishga ulguridan,
 bolaligimdan hind kinolarini kiprik yummay
 ko'rganimdan,
 asar qahramonlari bilan xayolan bog'dami-tog'da...
 yurganimdan,
 Bobur Hindistonga Toshkent atrofidan xos
 soqchilariyu hunarmandlarini to'plab ketganidan,
 uning avlodlari Tojmalaldek yetti mo'jizadan birini
 bunyod etganidan
 Boburni sevsam kerak deb yurardim, yo'q,
 o'z kasbim-jurnalistikani qalbdam mehr, ko'zimda
 cho'g',
 hayotimda muhim o'rin tutgan SEVINCH ila qayta-
 qayta qayd etganimdan,
 aniqrog'i chiqib bo'lmas cho'qqimga Boburmizro
 orqali yetganimdan
 Sevar ekanman UNI!

Maktabni oltin medal bilan bitirib, fizika faniga uquvim
 balandligidan, qolaversa tuman, viloyat, hatto Respublika
 olimpiadalarida shu fan tufayli g'olib chiqqanimdan,
 bitta imtihon bilan (agar «5» baho olsam) tibbiyot
 oliygohiga kirib ketaman, degan ishonch bilan hujjatlar
 yiqqanimdan,

hujjatlarimni ToshMI ga topshirib kelayotsam,
 trolleybusda shoir Po'lat Mo'minni ko'rib qolamanmi-ya?!
 Qayerdan kelayotganimni bilgan shoir: «Senga nega
 «Gulxan»da oq yo'l yozdim-a. Axir sen jurnalist bo'lishing
 kerak-ku!» degan so'zlarini quloqqa olamanmi-ya?!

Shu tasodifiy uchrashuv shu kungacha qilgan orzularimu
 hatto hayotimni ham o'zgartirib yubordi. Izimga qaytib,
 hujjatlarimni oldim va uydagilarga ToshDUga o'qishga
 borishimni aytdim. Vaqt tig'iz, otajonim xunob. Axir yetuklik
 guvohnomamda chet tili o'qiganim haqida hech gap yo'q.
 ToshDUga kirish uchun esa chet tilidan ham imtihon
 topshirish kerak. Ertasiga otamning aytgani bo'ldi:
 hujjatlarimni qabul qilishmadi. Men «birinchi imtihon -

adabiyotdan «5» olib o'qishga kirib ketaman. Chet tilidan
 baho olgan-olmaganim bilan ishingiz bo'lmasin», derdim.
 Yo'q, ularning hamma-hammasi bilan ishlari bo'lar ekan,
 matbuotda chiqqan maqola va she'rlarimni dastalab olib
 kelishim, uch yil avval chet tilidan saboq berib, uzoqqa
 ko'chib ketgan o'qituvchimdan o'sha vaqtdagi baholarimni

MIEN BOBURNI NEGA
SEVAMAN?

guvohnomamga qo'ydirib olishim, unga direktorning roziligi
 va maktab muhri qayta bosilishi albatta shartligi...


Otajonim bilan yo'l yursak ham mo'l yurib hujjatlarini bir
 hafta deganda taxt qildim. So'ng nafasim bo'g'zimga tiqilgudek
 bo'lib davlat imtihoniga hech bir tayyorgarliksiz kirib bordim.
 Hamon birinchi imtihondanoq «5» olaman-da, talaba
 bo'laman, degan shashtimdan tushmagan edim. Savlatli
 domlarning o'tkir nigohi ostida duch kelgan imtihon biletini
 ko'tardim-da ... ko'zlarimga ishonmay qoldim!

Birinchi savol: Bobur lirikasi! Keyingi savollar bilan
 qiziqqanim ham yo'q.

Quvonchim yuzimga balqidi shekilli, domla: «Tayyorlanmay
 javob bersangiz marhamat, o'ziga ishonganlarga biz ham
 ishonamiz»,- dedi. Albatta tayyorlanmay javob beraman-da,
 bir baxtimni sinay, dedim o'zimga-o'zim va Boburmizro haqida
 asarlar sahnalashtirib, zavq-shavq bilan uning o'nlab
 g'azallarini yod olganim, maktab sahnasida Boburmizro
 zamonasiga qaytib, ustozu tengdoshlarimning olqishlari
 qurshovida qolganim qo'l keldi chog'i, domlaga yuzma-yuz
 o'tirib shoarning orzulari mujassam to'rtligini yod aytdim.

**Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
 Urgangali ilm tolibi ilm kerak.
 Men tolibi ilm, tolibi ilmiy yo'q
 Men bormen ilm tolibi ilm kerak.**

Domla, keyinroq yaxshi tanib oldim, xassos olim Abdug'afur
 Rasulov meni ruhlantirib boshlarini g'azal ohangida tebratib,
 «yana o'qing, yana, yana...», deb turibdilar. Atrofdagilarni lol
 qoldirib shu kuni sevimli o'nlab g'azal, tuyuq va ruboiylarini



yod aytdim va o'zim aytganim birinchi imtihondanoq «5»
 baho olib o'qishga kirib ketdim.

Ha, Boburmizroni men shuning uchun ham qattiqroq
 sevaman. Uning asarlari qalbimda ishonch, jur'at, o'zbekona
 shaxdu-sur'at o'yg'otadi. O'qing, yod oling o'z Boburimizni,
 aziz bolalar! Chunki Bobur o'z bobomiz, bizni qo'llovchi,
 omadlarga yo'llovchi buyuk vatandoshimizdir.

Umida ABDUAZIMOVA.

BOBURMONOLOGI

Tomirimda jo'shib oqayotgan qon,
 Buyuk Andijonning nishonasidir.
 Garchi Vatanimdan olisman bugun
 Qalb-qo'rim Vatanim ostonasidir.
 Buyuk Sohibqiron valiahdiman,
 Go'zal Andijonning jigarporsasi.
 Bu dunyo yuzini ko'rgan joyim-chi,
 Umarshayx Mirzoning zo'rkoshonasi.
 Buyuklik baxsh etdi bizlarga daho,
 Ulug'beklar soldi osmonlarga yo'l.
 Navoiy madh etgan go'zal diyorim,
 Turkistonim, bugun sen nurlarga to'l.
 Bilgil g'arib ko'nglim oshnosi o'zing,
 Yuragimga malham go'zal ma'konim.
 Hech qachon unutmam bergan oq tuzing,
 Shaharlar sardori hur Andijonim.
 Oh, bilgin kechalar yulduzlar sanab,
 Sening sog'inching-la yonaman bedor.
 Kechalar ko'zimga ilinmas uyqu,
 Vatan ishq bilan Boburdur bemor.
 Hech qachon tuzalmas qalb jarohati,
 Vatangado bo'ldim olisda bugun.
 Hech bir zot eshitmas ohu dodimni,
 Nechun yechilmaydi qalbdagi tugun.
 Qo'limda yarog'im ko'pjanglar ko'rdim,
 Hamma janglarda ham kulmadi omad.
 Buyuk Andijonni unutmas qalbim,
 Hali bitgani yo'q qalbdam jarohat.
 Tog'larida o'sar lolaqizg'aldoq,
 Bugun lolalar-chun doston bitaman,
 Yalangoyoq yurib tog'larda goho,
 Hayolim-la barin tavof etaman.
 Qani endi yulduz bo'lsam, Zuhroday yorqin,
 O'lis osmonlardan Vatanim ko'rsam.
 Ko'm-ko'k samolarda sog'inch yulduz bo'b,
 Vatan osmonida men porlab tursam.

Xolida SALOHIDDINOVA,
 Andijon viloyati, Jalolquduq tumani,
 Beshtol qishlog'i.

XULQUNGNI ROST QILG'IL
HAR SORI GAHI BORSANG...

Ustozlarimiz doimo bizgani kutubxonaga a'zo
 bo'lishimiz shartligini eslatib turishadi. Men ham uch
 yildan beri maktab kutubxonasiga a'zoman. Ko'proq
 ertak, fantastik va klassik adabiyotlarni o'qishga harakat
 qilaman.

Yaqinda o'qituvchimiz bizga Zahiriddin Muhammad
 Bobur tavalludining 520 yiliga bag'ishlab katta
 tadbir o'tkazishimizni aytib qoldilar. Shuning uchun har
 bir o'quvchi Bobur haqida kengroq ma'lumot to'plashi
 kerakligini qo'shib qo'ydilar.

Boburning hayoti va ijodini yaxshiroq bilish maqsadida
 yana jonajon kutubxonaga bordim. U yerdan uning
 g'azallarini, fard va ruboiylarini, masnaviy va boshqa
 bitiklarini o'qib chiqdim. Biriga tushunib, biriga
 tushunishim qiyin bo'lsa-da, uchindan ham Javoharlal
 Neru aytganidek, «Bobur dilbar shaxs, uyg'onish
 davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam
 bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur
 qilishni yaxshi ko'rardi», degan fikriga qo'shildim.

Yaqinda esa «Bobur ma'rifati» deb nomlangan kitobni
 o'qib tugatdim. O'quvchilar uchun soddagina qilib
 yozilgan ushbu kitobdan Bobur haqida ko'p
 ma'lumotlarni bilib oldim.

Jumladan, uning asarlari jahon fani va madaniyatini
 rivojlanishiga katta boylik bo'lib qo'shilgan ekan.

*Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
 Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.*

Bu misralar orqali Bobur insonlarni yaxshilikka, yaxshi
 ishlarni qilish kerakligini yana bir bor uqtiradi.

Shu bilan birga Bobur o'z asarlarida insonlarni
 do'stlikka, birodarlik va inoqlikka chaqiradi. U amaldagi
 chinakam do'stlik har narsadan ustun ekanligini biz
 yoshlarga eslatib o'tadi.

Odobli, yaxshi xulqli bo'lsang, yaxshi odam deb nom
 chiqarasan, shunda barcha insonlar seni yaxshi odam
 deyishadi, deydi. Yaxshilik qilsang, yaxshilik ko'rsan,
 yomonlik qilsang, yomonlik ko'rsan, degan g'oyani
 ilgari suradi.

*Xulqungni rost qilg'il har sori gahi borsang,
 Axsanta der bori el gar yaxshi ot chiqarsang.*

Istardimki, har bir o'quvchi Zahiriddin Muhammad
 Bobur asarlarini chuqur o'rganib, o'ziga kerakli xulosani
 chiqarsin. Shunda ular doimo yaxshilarga va
 yaxshiliklarga intilib yashash kerakligini tushunadilar.

Alisher ABDULLAJONOV,
 Poytaxtimizning Hamza tumanidagi
 206- maktabning 5-sinf o'quvchisi.

O'zimizning o'zbeklar

Xalqaro axborotlashtirish akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a'zosi, olim va shoir Rajab Islombekov bilan suhbat.

«O'zbek olimlaridan Rajab Qoplonbekovich Islombekov jahon olimlarining asriy orzusi bo'lgan»

Salomat xolaning tovushi balandroq chiqardi.

- Oyi, oyi! Nega Nurilarning uyida ayollar yig'layapti? Shunda onam meni quchoqlab, ko'ziga yosh oldi.

-Nuri vafot etdi!

Men ho'ngrab yubordim.

-Nega u o'ladi?!

deyishdi. Odamlarni ko'zi toshni yoradi, singlim, yana bolangga biron-bir kor hol bo'lmasin.

- Rajab aka, siz ming-minglab bo'qoq



ELDA AZIZ BO'LASIZ

qalqonsimon bez kasalliklarini tig'siz radioaktiv yod izotoplari bilan aniqlash va uni davolash tashabbuskorlaridan biridir... - deydi akademik V.M.Keldish.

Rajabek Islombekov «qo'sh kasbli» shifokor olimlardan sanaladi. Asosiy ishidan bo'sh vaqtlarida dunyo kezadi. Turli xalqlar va elatlarning hayoti, urf-odatlarini o'rganadi. «Kanada bilan uchrashuv», «Afrika osmoni ostida», «O'zbekistondan olisda», «Dil kuylari», «Qalbim torlari», «Tahlikali zamonlar» kabi yuzlab asarlari chop etilgan. So'nggi 25 yildan beri Moskvada yashaydigan vatandoshimiz istiqloq tufayli Respublikamizda yuz bergan buyuk o'zgarishlarni ko'rib, dil-dilidan quvonadi.

-Unga chechak chiqqan edi. Hozir Qonqusdagi bolalar o'rtasida chechak tarqalgan. Yig'lama, o'g'lim. Iloyim, bu kasal bizning uyga kirmasin!

-Nurini nega Poshsha xolam tuzatmadilar? Biz kasal bo'lsak Poshsha xolam kinna solib tuzatadilar-ku!

-Poshsha xolang bu kasalni tuzatolmaydi. Nuriga faqat katta do'xtirlar yordam berishi mumkin.

Nurining qirqi kuni ayollar uning qabriga borishganda men onamga ergashdim. Salomat xolam qizining qabri ustida qo'lini tizzasiga urib yig'ladi. Unga boshqa ayollar qo'shilishdi. Men ham o'zimni tutib turolmadim...

Yo'lda kelayotib onamdan:

-Oyi, nega odamlar o'ladi? - deb so'radim.

-Ular har xil kasallarga chalilib o'ladi.

-Ularni shahardagi katta do'xtirlarga olib borib davolatsa bo'lmaydimi?

-Bo'ladi.

-Nega Nurini o'sha do'xtirlarga olib borib davolatishmadi?...

-Chunki ular hammani davolab ulgurishmaydi.

Bemorlar ko'p, do'xtirlar esa oz...

-Men katta bo'lsam albatta do'xtir bo'laman. Odamlarning kasal bo'lib o'lishiga yo'l qo'ymayman. Hali ko'rasiz oyijon!

-Niyatingga yet o'g'lim! - deganlarini hanuzgacha eslayman.

-Unda badiiy ijodga qiziqishingiz qachondan boshlangan?

-She'r yozishni ancha erta boshlaganman. Bir kuni qishlog'imizga mashhur san'atkor Halima Nosirova boshliq san'atkorlar kelib konsert berishdi. Tanaffus paytida konsert boshlovchisi, «Qani, kim ashula aytadi, she'r aytadi?», -deb qoldi. Men qo'l ko'tarib:

-Amaki, men o'zim yozgan she'rimni aytsam maylimi? -deb so'radim.

-Sen she'r yoza olasanmi? Yoshing nechada?

-Qovun pishsa yettiga to'laman. Akam bilan maktabga borayapman. O'qish va yozishni o'rganib olganman. Bulbul haqida she'r yozganman.

-Obbo sen-ey! Kelaqol, she'ringni o'qiyqol.

Choyxonadagi odamlarning nigohi menga qaratildi. Men mo'ylovli amakining oldiga borib, odamlarga o'girildim-da, bolalarcha hayajon bilan baland ovozdada «Bulbulcha» she'rimni yod aytdim. Bu mening ko'pchilik oldida birinchi chiqishim edi. Tomoshabinlar qarsak chalib qiyqirishdi. Konsertdan keyin mahallamizdagi Zokirbek aka bilan qaytdik. Darvozamiz oldida akam bizni kutib turgan ekanlar.

Zokirbek aka onamga:

-Adolatxon, singlim, Rajabekka isiriq solib qo'y! U choyxonada she'r o'qigan edi, hammaning og'zi ochilib qoldi... Yo tavba, mushtdek bola she'r yozsa-ya! -

kasaliga chalingan bemorlarni o'lim changalidan olib

qolgansiz. Bo'qoq kasalining o'zi nima? Uni kelib chiqish sabablari haqida so'zlab bersangiz.

-Bo'qoq kasali asosan inson organizmida yod moddasining yetishmasligi tufayli sodir bo'ladi. Tomoq ostiga kapalak misoli qalqonsimon bez joylashgan. Uning asosiy vazifasi inson tanovul qilayotgan oziqlardan yod moddasini ajratib olib, organizmning hamma qismiga birdek taqsimlash. Bir kecha-kunduz davomida qalqonsimon bezlar eng zarur bo'lgan to'rt tomchi yodni yetkazib berishi kerak. Aks holda inson o'smay qolishi, bepushtlik, aqli zaiflik asoratlariga duchor bo'lishi

ILON BILAN ARI

Ilonning boshiga qo'nib olgan ari uni tinmay chaqib azoblay boshladi. Og'riqdan esi og'ib qolayozgan ilon hech bir qutulish chorasini topolmay qiynalardi. Oxiri bo'lmagach, ilon o'rmalab yo'lga chiqdi, uzoqdan kelayotgan aravani ko'rib, boshini g'ildiraklar ostiga qo'yarkan, dedi: «O'lishga-ku o'laman, ammo dushmanim bilan birga!»

Alqissa, intiqom alangasi g'animgina emas, kishining o'zini-da kuydiradi.

TULKI BILAN ONA SHER

Tulki ona sherni kamsitmoqchi bo'lib dedi: «Vi-iy, yiliga bittagina tug'asan-a?!»

Ona sher aytdi: «Bitta-yu, sherbachcha tug'amanda!»

Alqissa, gap sonda emas, sifatda.

mumkin. Organizmda ma'lum miqdordagi yod moddasi uzluksiz yetishmasa qalqonsimon bezlar shisha boshlaydi. Nafas yo'llarini qisib bemorni og'ir oqibatlariga, hatto halokatga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda yer yuzidagi 1,5 milliard odam organizmida yod moddasi yetishmasligi, 650 million aholiga bo'qoq shishlari azob berayotganligi, 20 million kishi aqli zaiflik kasaliga muhtalo bo'lganligi ma'lum. Bu kasallikni davolash uchun xalqaro miqyosda ish olib borish kerak. Buning uchun kundalik iste'mol qilinayotgan osh tuzlariga yod moddasi qo'shilmogda. Shu yildan boshlab Toshkent viloyatidagi Xasanboy qishlog'ida yodlangan saqich ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Yana bu borada izlanishlar olib borishimiz kerak bo'ladi. Endikrinologiya, ayniqsa qalqonsimon bez va bo'qoq kasalliklari sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi dunyo olimlari bilan fikr almashib turamiz. Hindiston, Italiya, Angliya, Olmoniya, Kanada, Belgiya va boshqa bir qancha mamlakatlar tabobat olimlari bilan yaqindan aloqa bog'laganim va hamkorlik qila boshlaganimga juda ko'p bo'ldi. Bir necha tillarni yaxshi bilishim ular bilan muloqot qilishimda qo'l kelayapti.

Islombekovlar sulolasidagi shifokor olimlar soni 50 dan oshib ketgan. Ularning ko'pchiligi tibbiyotning turli sohalarida doktorlik va fan nomzodi darajasiga ega. Oilaning bobokaloni Musaxon ota Qozon tibbiyot dorilfununida tahsil ko'rgan. Harbiy shifokor sifatida ming-minglab bemorlar qalbiga shifo topib, ularni hayotga qaytargan. Olimning katta o'g'li Rashid - ilmiy xodim, endikrinolog, Moskvada ishlaydi. Jamshid - ortoped-travmatolog, Toshkentda xizmat qiladi. Qizi Oliya pravizir, Sankt-Peterburgda shifokor bo'lib ishlaydi...

- O'zbekistonda mustaqillik tantana qildi. Bu osonlikcha qo'lga kiritilmadi. Uni asrash kerak, deydi olim. - Aziz Vatanimizning suyuqlik farzandlari bo'ling, chet tilini o'rganing, dunyo bo'ylab kezasiz. Kasb-hunarga mehr qo'ying. Elda aziz bo'lasiz. Ota-onangizning suyuqlik farzandi bo'lishingiz uchun odob-ahloqda namuna bo'ling. Kelajagi buyuk davlatning munosib vorislari bo'lib yetishing. Biz ham sizdek vatandoshimiz borligi bilan faxrlanamiz. Umringiz uzoq, ko'nglingiz shogirdlar kamolidan hamisha charog'on bo'lsin.

Suhbatdosh Tohir MULLABOYEV.

BALIQCHI

Baliqchi anhorda ov qilardi. U to'rni narigi qirg'oqdan berigi qirg'oqqacha tortib, oqimni tamom to'sgach, arqonga kattagina tosh bog'ladi-da, suvni shaloplastib urishga tutindi: baliq shovqindan qochib borib to'rga ilinsin, degan-da. Shu yerda yashovchilardan biri baliqchining bu xil ish bilan mashg'ulligini ko'rib: «Sening dastingdan toza suv icholmay qoldik-ku!» - deya uni koyishga tushdi. Baliqchi bunga javoban dedi: «Agar men anhorni loyqalatmaganimda, ochlikdan o'lishimga to'g'ri kelur edi!»

Alqissa, buzg'unchilar ham shunga o'xshaydi: ular o'z yurtlarida notinchligu'g'alayonlar qo'zg'atib olsalargina yaxshi yashay oladilar.

-Men har gal ona vatanim O'zbekistonga, tug'ilgan shahrim Toshkentga kelganimda shunday shaharda tug'ilganimdan faxrlanam. Chunki u dunyodagi eng go'zal shaharlar qatoridan joy olayapti.

Shifokor bo'lishimga ham O'zbekistonda o'tgan bolaligimdagi bir voqea sabab bo'lgan. Men Toshkentdan chekkaroq Qonqus qishlog'ida tug'ilib o'sganman. Qishloq choyxonasining oldida katta yalanglik bo'lib, uning etagi daraxtzor edi. Biz bolalar shu daraxtzor ichida har xil o'yinlar o'ynashni yaxshi ko'rardik. Ayniqsa, shomdan keyin bekinmashoq o'ynash sevgan mashg'ulotimiz edi. Chillak o'ynardik, yozda to'lib-toshib oqadigan Qonqus arig'ida cho'milardik. Deyarli har kuni daraxtlarga chiqib, qarqunolqlarning jish jo'jalari qanday katta bo'layotganligini tomosha qilardik. Ular qanot chiqara boshlaganidan keyin don berib, qo'lga o'rgatardik. Tengqurlarim orasida men qo'shnimiz Salomat xolaning qizi Nuri bilan yaqin edim. U ozg'in, lekin juda xushchaqchaq va sho'x qiz edi.

Bekinmashoq o'ynaganimizda u hamisha meni o'ziga sheriklikka tanlardi. Oyim tansiq taom pishirsalar, men albatta Nuriga olib chiqib berardim. U ham meni shirinliklar bilan siylashni yaxshi ko'rardi. Biz bir-birimizga juda o'rganib qolgan edik. Bir-ikki kun ko'rishmasak sog'inardik.

Kunlarning birida Nuri ko'chada ko'rinmay qoldi.

Men uyga chiqib:

- Oyi, Nuri nega ko'chaga o'ynagani chiqmayapti? Ularnikiga chiqsam maylimi? - deb so'radim.

- O'g'lim, hozir Nurining oldiga kirish mumkin emas. U isitmalab yotibdi.

- Baribir kiraveraman. Uni ko'rgim kelayapti, - deb darvoza tomon yurdim.

Onam yo'limni to'sib, darvozani tamladilar. Men yig'lab yer tepina boshladim.

- Nuri yuqumli kasalga chalingan. Hovlimizda akalaring bilan o'ynaysan...

Oradan besh-olti kun o'tgach, ertalab Nurilarning uyidan ayollarning dod-faryodi eshitildi. Ular orasida



Muhokama uchun mavzu

AJRALIB QOLGAN SINFBOSHI

Yangi o'quv yili boshlanganiga ko'p o'tmasdan, 7- «A» sinf rahbari Mavluda opani maktab ma'muriyati ikki oylik malaka oshirish institutiga o'qishga yuborish to'g'risida buyruq chiqardi. Ertaga jo'nab ketishi lozimligini bilgan Mavluda opa bugun odatdagidan ertaroq maktabga keldi va o'z sinfiga kirdi. U sinf jurnalini to'ldirib, darsdan so'ng bo'ladigan sinf yig'ilishi kun tartibini yana bir bor ko'zdan kechirdi. Bugungi yig'ilishda o'quvchilarning davomati, tartib-intizomi hamda shaharga ko'chib ketgan sinfboshi o'rniga yangi sinfboshi qo'yilishi lozim. «Qiziq, kim sinfboshi bo'lsa, sinfni yaxshi boshqarib o'z ortidan ergashtira oladi», o'yga toldi sinf rahbari. A'lochi Ma'rufmi yoki dono Fazilat, ixtirochi Bahodirmi yoki bilimdon, olimpiada g'olibi Nargizami, o'ziga-o'zi savol berdi u, hali sinf kimni ma'kul topar ekan. Mana dars ham tugab, sinf yig'ilishi boshlandi.

Mavluda opa o'quvchilarning har birining davomati to'g'risida, tartib-intizomi to'g'risida qisqacha to'xtalib, keyingi masala, ya'ni yangi sinfboshi saylash uchun kimda qanday taklif bor deb o'quvchilarga murojaat qildi.

-Menda taklif bor, - qo'l ko'tarib o'rnidan turdi Sarvar va shunday dedi: - Oqila sinfboshi bo'lsin, u hammaga o'rnak bo'la oladi.

-Yo'q, - dedi Iroda, - Nargiza bo'la qolsin. U a'lochi. -Menda ham taklif bor. Bahodir sinfboshi bo'lsin, - ta'kidladi Akmal. Mavluda opa har uchchala nomzodni ovozga qo'ydi va Nargiza eng ko'p ovoz oldi.

Sinf rahbari Nargizaga bir talay ishlarni topshirdi-yu o'zi malaka oshirishga jo'nab ketdi. Nargiza sinfboshi bo'ldi-yu batamom o'zgardi. Undagi odob, kamtarlik o'rnini asta-sekin takabburlik, manmanlik egalladi. Sinf doshi do'stlarining bergan savollariga istar-istamas jerkib javob beradigan, dugonalari oldida viqor bilan yuradigan bo'ldi. Hatto har kuni birga maktabga qatnaydigan partadosh dugonasi Nodira bilan ham yaxshi gaplashmay qo'ydi. Nima bo'ldi-yu matematika darsidan yangi o'qituvchi Sardor Sharipov dars o'ta boshladi. U yangi mavzuni o'tishdan avval o'tilgan dars bo'yicha o'quvchilarning bilimini baholay boshladi.

-Halilova Nargiza doskaga chiq!
Nargiza birpasda o'ziga berilgan misolni a'lo darajada yechdi. Yana bir necha o'quvchi baholangandan so'ng doska yoniga Sadoqat chaqirildi, u kalovlanib o'rnidan turdi.

-U bunaqangi qiyin misol va masalalarni yecha olmaydi. «Kashtachi xonim», - sharaqlab kulib yubordi Nargiza Sadoqatning «mohir qo'llar» to'garagiga qatnashishiga ishora qilib. Hamma yalt etib Nargizaga qaradi.

-Bilmasa o'rganib oladi, qani, qizim men aytgan misolni yozgin.

Matematika o'qituvchisi Sadoqatga tushuntirib misolni ishlatdi.

Xuddi shu singari boshqa darslarda ham sinfdoshlarini kamsitib gapirish Nargizaga odat bo'lib qoldi. Endi tanaffuslarda qizlar to'planishib turgan joyga Nargiza borsa ular tarqalib ketadigan, o'g'il bolalar esa uning ustidan masxaromuz kulib «a'lochi oyim» deydigan bo'lishdi.

Ha, bugun sinfboshi o'zining tanholigiga, barchadan aqlli ekanligiga mahliyo bo'lib, kibr osmonida parvoz qilar va shuning bilan birga sinfdoshlaridan tobora ajralib borar edi.

Jamila ERDONOVA.

YOQIMLI ISHTAHA

Turpli salat

Kerakli masalliq: 1 ta kattaroq turp, 1 ta qizil sabzi, 2 dona piyoz, 1 oshqoshiq uzum sirkasi, ta'bga ko'ra tuz va qalampir.

Tayyorlanishi: Somoncha shaklda to'g'ralgan turp bilan parrak-parrak qilib to'g'ralgan piyoz obdon aralashiriladi. So'ngra qirg'ichdan o'tkazilgan qizil sabzi va ziravorlar qo'shib, ta'mi rostlanadi. Salatni salatdonlarga solib, turp, piyoz, sabzi parraklari va mayda qirg'ilgan rayhon bilan bezatiladi. Bunday salatni sariyog' va xamirli taomlar bilan qo'shib tortiladi.



Suzmali salat

Kerakli masalliq: 500 gr. suzma, 2 bog' ko'k piyoz, yarim bog'dan kashnich, ukrop, 1 bosh oq piyoz, rayhon, tuz.

Tayyorlanishi: Oshko'klardan barra piyoz, rayhon, kashnich, ukrop sovuq suvda yuvilib, mayda qirg'iladi va suzmaga qo'shib yaxshilab eziladi. Ustidan tuz, tuyilgan zira, qalampir sepiladi. Tayyorlangan ko'k suzma idishlarga solinib, oq piyozdan idishchalar yasilib, salat usti bezatiladi. **Yoqimli ishtaha!**

Shaxzoda OYDINOVA,
Poytaxtimizdagi 188 - maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.

1. Eng kichik qush nomi?

- a) chumchuq;
- b) kalibri;
- c) kabutar;
- d) qarg'a.

2. Dunyodagi eng katta daryo nomi?

- a) Amudaryo;
- b) Kaspiy;
- c) Zarafshon;
- d) Nil.

3. Suvning kimyoviy formulasi - ...

- a) H₂O;
- b) CH₄;
- c) H₂SO₄;
- d) SO₃.

4. «Temir xotin» dramasi muallifi?

- a) Said Ahmad;
- b) Xudoyberdi To'xtaboyev;
- c) Sharof Boshbekov;
- d) Zulfiya.

5. «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» qachon tasdiqlandi?

- a) 1991-yil;

- b) 1990-yil;

- c) 1988-yil;
- d) 1989-yil.

6. «Bank» so'zi qaysi tildan kelib chiqqan?

- a) Fransuz tilidan «stul» ma'nosini bildiradi;
- b) Ingliz tilidan «stul» ma'nosini bildiradi;
- c) Italyancha «stul» ma'nosini bildiradi;
- d) Rus tilidan «stul» ma'nosini bildiradi.

7. Ulug'bek rasadxonasiga o'rnatilgan astronomik asbobning nomi?

- a) Sekstant;
- b) Mikroskop;
- c) Globus;
- d) Teleskop.

8. Jahon dinlariga qaysi dinlar kiradi?

- a) Yudaizm, Xristian, Budda;
- b) Budda, Xristian, Islom;
- c) Konfutsiylik, Yudaizm, Islom;
- d) Islom, Budda, Konfutsiylik.

Tuzuvchi:

Nazira QAYIPBERGANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli
tumanidagi 57 - maktab o'quvchisi.

FUTBOL KROSSVORDI

Savollar: 1. Makalelining vatani. 2. Senegallik o'yinchi. 3. Braziliyalik hujumchi. 4. Yaponiyalik hujumchi. 5. Fransiyalik hujumchi. 6. Raul Gansalesning vatani. 7. O'zbekistonlik futbolchi. 8. Senegallik hujumchi. 9. 2002 yilning eng yaxshi darvozaboni. 10. Liverpullik o'yinchi. 11. 2001 yilning eng yaxshi o'yinchisi. 12. Yaponiyalik o'yinchi. 13. Irlandiyalik himoyachi. 14. Fransiyalik o'yinchi. 15. Argentinalik himoyachi. 16. Senegallik o'yinchi. 17. Yaponiyalik o'yinchilardan biri. 18. O'zbekistonning yoshlar guruhidagi o'yinchisi. 19. Argentinalik faol o'yinchi. 20. Agaxoaning vatani. 21. Italiya super klubi. 22. Senegallik o'yinchi. 23. Urugvaylik o'yinchilardan biri. 24. Turkiyalik o'yinchi. 25. 2002-yil jahon chempionatida 3-o'rinni kim egalladi. 26. Angliya terma jamoasi klubi. 27. Frantsiyalik yarim himoyachi. 28. O'g'il bolalar ismi.

Tuzuvchi: Olimjon XALILOV,
Surxondaryo viloyati, Muzrabot
tumanidagi 14 - maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

1					2			
		9					10	
			16					
	15			22				
					26	23		3
							17	
		21	25					
8					28		18	11
						27		4
			24					12
		20			19			
			14			13		
	7						6	5

Bizning to'garak

Assalomu alaykum qadrdonimiz «Tong yulduzi»! Biz Buxoro viloyatining Romiton tumanidagi 42 - iqtidorli bolalar maktabining 5-sinfida o'qiydiz. Sinfimizda she'riyatga, rasm chizishga ixlosmand o'quvchilar talaygina. Qo'shiq kuylab, raqsga tushishni «qoyillatadiganlar» ham oz emas. Yaqinda maktabimizga «Qishloqdagi tengdoshim» teleko'rsatuvi ijodkorlari kelishdi. Biz ularga o'z ijodimizni namoyish etdik. Ko'rgan bo'lsangiz, ko'rsatuv chakki chiqmadi-a?

Biz ijodkor bolalar yozgan she'riy mashqlarimizni ona tili va adabiyot o'qituvchimiz M.Sharipovaga, chizgan rasmlarimizni esa rasm o'qituvchimiz A.Xonovga ko'rsatamiz. Ular kamchiliklarimizni ko'rsatib, maslahatlar berishadi. Ustozlarimizga ma'qul bo'lgan mashqlarimiz, chizgan rasmlarimizdan ayrimlarini «Bizning to'garak»ka yuborishga ahd qildik.

YASSAVIY BOBOM

Sayramlik buyuk daho,
Ahmad Yassaviy bobo.
«Devonu hikmatingiz»,
O'qib bo'lamiz dono.

Ma'no to'la so'zingiz,
Nuroniysiz o'zingiz.
Sizni unutmang aslo,
Har bir o'g'il-qizingiz.

Farhod JUMAYEV.

BULBUL

Erta tongda, daraxt shoxida,
Sayrab qoldi nozik bir bulbul.
Gulni maqtar, chamanni maqtar,
Vatanini jo'shib maqtar ul.

LAYLAKLAR

Olis osmon bag'rida,
Ajob qo'shiq aytasiz.
Mehmon bo'lib yurtimga,
Qanot qoqib qaytasiz.
Bahordan darak berar,
Bu - qadrdon laylaklar.

Nozim QALANDAROV.

YURTIM

Yurtim bu kun sen,
Mustaqil bo'lding.
Navqiron o'smirdek,
O'n birga to'lding.
Sening o'n ikki,
Viloyating bor.
Xalqing qalbida,
Orzular bisyor.
Quyosh ham senga,
Nurin sochar mo'l.
Gulla, yashnagin,
Doim omon bo'!


Suhrob SATTOROV.

QISHLOG'IM


Qishlog'im nomi Toyloq,
Tarixi juda uzoq.
O'tgan ekan karvonlar,
Juda ko'p savdogarlar.

Bir tuyaning shu yerda,
Ko'zi yorib qolibdi.
Shu sabab qishlog'imiz,
«Toyloq» nomin olibdi.

Qay biri ma'qul?



Elyor KARIMOV chizgan rasmlar.



USTOZLARGA OSON EMAS EKAN

(Voqeiy hikoya)

Qishki ta'til kunlari edi. Oyim buyurgan barcha yumushlarni bajarib bo'lgach, mahalladagi dugonalarimni chaqirib chiqdim. Darsxonamga kirib «Maktab-maktab» o'ynadik. Yoshimiz kattaroq bo'lgani uchun men va dugonam Dilsora o'qituvchi, qolganlarsa o'quvchilarimiz bo'lishdi. Birinchi soatni Dilsora o'tdi. Ikkinchi soat - matematika darsiga men «kirdim».

O'quvchilarimga bir necha misol va masalalar yozdirdim. Keyin esa

daftarlarini yig'ib olib, baholab chiqdim. Hamma «o'quvchilarim» «5» va «4» baholar olishdi. Faqatgina Aqida ismli qizga xatolari ko'p bo'lgani uchun «3» baho qo'ydim. Dars yakunida ularning baholarini e'lon qildim. Uch baho olganini eshitgan Aqida xafa bo'lib tashqariga chiqib ketdi.

- Aqida, bu axir o'yin-ku. Istasang, biremas, ikkita besh qo'yib beraman, - desam ham ko'nmadi.

- Hammaga besh, menga uchmi?

Endi beshingni pishirib ye, - dedi yig'lamsirab.

Men qilgan ishimdan juda pushaymon bo'ldim.

Shu voqea sabab bir narsani anglab yetdim: biz o'quvchilar, ayniqsa qizlar, o'qituvchimiz bilimimizga yarasha pastroq baho qo'yishsa, ko'pincha xafa bo'lib qolamiz. Ana shu o'qituvchimizni ham, uning fanini ham yomon ko'rib qolamiz. Aslida esa bunga o'zimiz sababchi ekanligimiz, darslarga puxta tayyorlanib kelsak,

ko'proq kitob o'qisak, bahoimiz ham shunga yarasha bo'lishi haqida o'yab ham o'tirmaymiz.

Bunday holatga o'zim ham ko'p tushganman. Bugun esa o'zimni ularning o'rniga qo'yib ko'rdim va ustozlarimizga ham oson emasligini tushunib yetdim.

Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi

35 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.



Masxarabozlardagi 14 ta farqni toping.

Shahzoda RIZAYEVA,
Poytaxtimizdagi «Orom» nomli maktabning 4-sinf o'quvchisi.

Ona yurtim - oltin beshingim
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARA-KATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Po'lat MO'MIN, Mukarrama MURODOVA, Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida ofset usulida bosildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № T-153 Gazetani Ma'suda IRISNAZAROVA sahifaladi. Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137 Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75